

TOSHKENT KIMYO-TEXNOLOGIYA ILMIY TADQIQOT INSTITUTI
HUZURIDAGI ILMIY DARAJALAR BERUVCHI
DSc.30/2025.27.12.K/T.01.01 RAQAMLI ILMIY KENGASH

TOSHKENT KIMYO-TEXNOLOGIYA ILMIY TADQIQOT INSTITUTI

SIROJIDDINOV ISMOIL LUQMON O'G'LI

DIZEL YOQILG'ISI UCHUN DEPRESSOR-DISPERGIRLOVCHI
PRISADKALAR OLISH TEXNOLOGIYASINI ISHLAB CHIQISH VA
JORIY QILISH

02.00.14 – Organik moddalar va ular asosidagi materiallar texnologiyasi

Texnika fanlari bo'yicha falsafa doktorlik (PhD)dissertatsiyasi
AVTOREFERATI

Toshkent-2026

Falsafa (PhD) doktori dissertatsiyasi avtoreferati mundarijasi

Оглавление автореферата диссертации доктор философии (PhD)

Contents of dissertation abstract of doctor of philosophy PhD)

Sirojiddinov Ismoil Luqmon o‘g‘li

Dizel yoqilg‘isi uchun depressor-dispergirlovchi prisadkalar olish
texnologiyasini ishlab chiqish va joriy qilish..... 3

Сирожиддинов Исмоил Лукмон угли

Разработка и внедрение технологии получения депрессорно-
диспергирующих присадок для дизельного топлива..... 21

Sirojiddinov Ismoil Lukmon ugli

Development and implementation of technology for obtaining depressors-
dispersing prisades for diesel fuel..... 41

E‘lon qilingan ishlar ro‘yxati

Список опубликованных работ
List of published works 44

TOSHKENT KIMYO-TEXNOLOGIYA ILMIY TADQIQOT INSTITUTI
HUZURIDAGI ILMIY DARAJALAR BERUVCHI
DSc.30/2025.27.12.K/T.01.01 RAQAMLI ILMIY KENGASH

TOSHKENT KIMYO-TEXNOLOGIYA ILMIY TADQIQOT INSTITUTI

SIROJIDDINOV ISMOIL LUQMON O'G'LI

DIZEL YOQILG'ISI UCHUN DEPRESSOR-DISPERGIRLOVCHI
PRISADKALAR OLISH TEXNOLOGIYASINI ISHLAB CHIQISH VA
JORIY QILISH

02.00.14 – Organik moddalar va ular asosidagi materiallar texnologiyasi

Texnika fanlari bo'yicha falsafa doktorlik (PhD)dissertatsiyasi
AVTOREFERATI

Toshkent-2026

Texnika fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD) dissertatsiyasi mavzusi O'zbekiston Respublikasi, Fanlar akademiyasi huzuridagi Oliy attestatsiya komissiyasida B2025.3.PhD/T5840 raqam bilan ro'yxatga olingan.

Dissertatsiya Toshkent kimyo-texnologiya ilmiy tadqiqot institutida bajarilgan.

Dissertatsiya avtoreferati uch tilda (o'zbek, rus, ingliz (rezyume)) Ilmiy kengashning veb-sahifasida (www.tktiti.uz) va «ZiyoNet» axborot ta'lim portalida (www.ziynet.uz) joylashtirilgan.

Ilmiy rahbar:

Vafayev Oybek Shukurlayevich

texnika fanlari doktori (DSc), katta ilmiy xodim

Rasmiy opponentlar:

Karimov Mas'ud Ubaydulla o'g'li.

texnika fanlari doktori, professor

Narzullayev Akmal Xollinorovich

texnika fanlari bo'yicha falsafa doktori, dotsent

Yetakchi tashkilot:

Termiz davlat universiteti

Dissertatsiya himoyasi Toshkent kimyo-texnologiya ilmiy tadqiqot instituti huzuridagi ilmiy darajalar beruvchi DSc.30/2025.27.12.K/T.01.01 raqamli Ilmiy kengashning «16» iyul 2026 yil soat 09:00 dagi majlisida bo'lib o'tadi. (Manzil: 111116, Toshkent tumani Ibrat MFY p/b Shurobozor Tel.:(+99895)144-67-83, E-mail: ooo_tniixt@mail.ru, TKTITI@exat.uz).

Dissertatsiya bilan Toshkent kimyo-texnologiya ilmiy tadqiqot institutining Axborot resurs markazida tanishish mumkin. (№ 2026/38 raqami bilan ro'yxatga olingan). (Manzil: 111116, Toshkent tumani Ibrat MFY p/b Shurobozor Tel.:(+99895)144-67-83, E-mail: ooo_tniixt@mail.ru, TKTITI@exat.uz).

Dissertatsiya avtoreferati 2026 yil «02» iyul kuni tarqatildi.
(2026 yil «02» iyuldagi 2026/38 raqamli reestr bayonnomasi)



A.T. Djalilov

Ilmiy darajalar beruvchi
ilmiy kengash raisi,
k.f.d., prof., akademik

Sh.D. Shirinov

Ilmiy darajalar beruvchi
ilmiy kengash kotibi,
t.f.PhD., k.i.x.

H.S. Beknazarov

Ilmiy darajalar beruvchi
ilmiy kengash qoshidagi
ilmiy seminar raisi, t.f.d., prof.

KIRISH (falsafa doktori (PhD) dissertatsiyasi annotatsiyasi).

Dissertatsiya mavzusining dolzarbligi va zarurati. Hozirgi kunda dunyo miqyosida dizel yoqilg'ilarining sifat ko'rsatkichlarini yaxshilash maqsadida sintez qilinadigan depressor dispergirlovchi qo'shimchalar, yoqilg'ilarining qotish haroratini yaxshilashda va sifatli, ekologik toza dizel yoqilg'ilari ishlab chiqarishda juda katta amaliy ahamiyatga ega hisoblanadi. Dizel yoqilg'isining ishlab chiqarish samaradorligini oshirishda depressor dispergirlovchi qo'shimchalarni keng ko'lamda qo'llash sanoat mahsulotlariga bo'lgan talabni oshiradi va dizel yoqilg'isining past haroratli sifat ko'rsatkichlarini yaxshilashning yangi yuqori texnologiyali sanoat tarmoqlarini takomillashtirish hamda sohadagi mavjud muammolarni bartaraf etishda depressor dispergirlovchi qo'shimchalarni joriy etish orqali o'zgartirish tadqiqotlarning dolzarbligini belgilaydi.

Jahonda dizel yoqilg'isi uchun samarali depressor dispergirlovchi qo'shimchalar olishga yo'naltirilgan ilmiy-tadqiqot ishlariga katta e'tibor qaratilmoqda. Bu borada, etilenpropilen kauchuk, polietilentereftalat, pentaeritritol, glitserin va to'yinmagan yog' kislotalari asosida kompleks ta'sir qiluvchi poliefir mahsulotlar olishning resurs-tejamkor texnologiyasini ishlab chiqishga alohida e'tibor berilmoqda.

Respublikamizda, innovatsion texnologiyalarni tatbiq etish orqali sanoat obyektlarini yuritishning ilmiy asoslangan tizimi va atrof-muhitni muhofaza qilishning chora-tadbirlarini amalga oshirishga katta e'tibor qaratilib, muayyan natijalarga erishilmoqda. Yangi O'zbekistonning 2022-2026-yillardagi taraqqiyot strategiyasida "Iqtisodiyotni rivojlantirishning ustuvor yo'nalishlari belgilangan hamda mahalliy xomashyo resurslarini chuqur qayta ishlash asosida, yuqori qo'shimcha qiymatli tayyor mahsulot ishlab chiqarishni yanada jadallashtirish, sifat jihatdan yangi mahsulot va texnologiyalarni yaratish"¹ bo'yicha muhim vazifalar belgilab berilgan. Bu borada milliy iqtisodiyotning yetakchi tarmoqlarini, jumladan, kimyo sanoatini rivojlantirishga yo'naltirilgan organik sintez asosida dizel yoqilg'isi uchun depressor dispergirlovchi qo'shimchalar ishlab chiqarish bo'yicha yuqori samarali hamda ekologik toza texnologiyalarni yaratish muhim ahamiyat kasb etadi.

O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2022-yil 28-yanvardagi PF-60-sonli "2022-2026-yillarda Yangi O'zbekistonni rivojlantirish strategiyasi to'g'risida"gi Farmonida va PQ-436-sonli "O'zbekiston Respublikasini 2030-yilgacha "yashil" iqtisodiyotga o'tishga qaratilgan islohotlar samaradorligini oshirish chora-tadbirlari to'g'risida"gi, 2018-yil 17-yanvardagi PQ-3479-sonli "Mamlakat iqtisodiyoti tarmoqlarini talab qilinadigan mahsulotlar va xomashyo turlari bilan barqaror ta'minlash chora-tadbirlari to'g'risida"gi, 2019-yil 3-apreldagi "Islohotlarni yanada isloh qilish va investisiyalar hajmini oshirish chora-tadbirlari to'g'risida"gi hamda PQ-4256-sonli "Kimyo sanoatini yanada isloh qilish va investitsion jozibadorligini oshirish chora-tadbirlari to'g'risida" gi qarorlarida, shuningdek mazkur faoliyatga

¹O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2022 yil 28 yanvardagi PF-60-sonli "2022-2026 yillarga mo'ljallangan Yangi O'zbekistonning taraqqiyot strategiyasi to'g'risida"gi Farmoni

tegishli boshqa meyoriy-huquqiy hujjatlarda belgilangan vazifalarni amalga oshirishda ushbu dissertatsiya tadqiqoti natijalari muayyan darajada xizmat qiladi.

Tadqiqotning respublika fan va texnologiyalari rivojlanishining ustuvor yo‘nalishlariga mosligi. Mazkur tadqiqot respublika fan va texnologiyalar rivojlanishining VII. «Kimyoviy texnologiyalar va nanotexnologiyalar» ustuvor yo‘nalishiga muvofiq bajarilgan.

Muammoning o‘rganilganlik darajasi. Jahonda dizel yoqilg‘isi uchun samarali depressor dispergirlovchi qo‘shimchalar sintez qilish va ularni ishlab chiqarish texnologiyalarini modernizatsiya qilish bo‘yicha olib borilgan tadqiqotlar yuzasidan bir qator ilmiy natijalar olingan, jumladan Shanxay texnologiya instituti bir guruh olimlari Minsya Yuan, Yuan Syue, Xualin Lin, SHen Xan dizel yoqilg‘isi uchun depressor dispergirlovchi qo‘shimcha sifatida turli xil molyar nisbatlarda tetradetsilmetakrilat-so-sianmamid ($C_{14}MC-CA$), tetradetsilmetakrilat-co-n-fenilakrilamid ($C_{14}MC-NPA$) va tetradetsilmetakrilat-co-n-metilolakrilamid ($C_{14}MC-NMA$) ning uchta sopolimeri olingan (Xitoy). Samex A. Elbanna Misr neft ilmiy tadqiqot instituti depressor dispergirlovchi qo‘shimcha sifatida stirol, stirol geksadetsilakrilat malein anhidrid asosida terpolimer sintez qilish bo‘yicha tadqiqotlar olib bormoqda (Misr). Zagreb universiteti olimlari Ivan Puchko, Marko Rachar va Fabio Faraguna dizel yoqilg‘isining past haroratli xususiyatlari ta’siriga ko‘ra tarkibida tret-butilaminoetilmetakrilat bo‘lgan metakrilat asosidagi polimer qo‘shimchalarning sintezi, tavsifi va samaradorligi tahlil qilganlar. Tomsk politexnika universiteti Alina Titayeva, Ilya Bogdanov, Kirill Titayev va Yana Morozovalar depressor dispergirlovchi qo‘shimchalar asosida dizel yoqilg‘ilarining past harorat xususiyatlarini yaxshilash usulini ishlab chiqilgan (Rossiya).

Respublikamizda Djalilov A.T., Nurqulov F.N., Asqarov M.A., Saydaxmedov Sh.M., Normetova G.R., Salimov Z.S., Maksumova O.S., Fozilov S.V., Mavlonov B.A. va boshqa olimlar tomonidan neft va gaz sanoatidagi chuqur o‘rganilmagan qo‘shimchalarning yonilg‘i bilan mosligi, qo‘shimchalarning yoqilg‘i sifat ko‘rsatkichlariga ta’siri, tabiiy-iqlim sharoitida avtotransport vositalarining qishki ishlashi, chiqindi gazining shaffofligini o‘rganish hamda ishlab chiqarish texnologiyasini takomillashtirishga qaratilgan keng ilmiy izlanishlar olib borilmoqda.

Dissertatsiya tadqiqotining dissertatsiya bajarilgan oliy ta’lim muassasasining ilmiy-tadqiqot ishlari rejalari bilan bog‘liqligi. Dissertatsiya tadqiqoti Toshkent kimyo-texnologiya ilmiy-tadqiqot institutining I-2017-7-4 “Mahalliy xom ashyolar asosida yangi samarali depressor dispergirlovchilar ishlab chiqarish va qo‘llash texnologiyasi” va A-BT-2021-17 “Jarkurgon neftni qayta ishlash” QK da ishlab chiqariladigan «JNQ Pech yoqilg‘isi» (Tsh 19432593-001:2014) mahsulotining qotish haroratini «minus» 15 °C dan yuqori bo‘lmagan haroratgacha pasaytiradigan depressor dispergirlovchi qo‘shimchasini (prisadkani) mahalliy xomashyolardan ishlab chiqarish texnologiyasini yaratish” amaliy va innovatsion loyihalari bo‘yicha ilmiy tadqiqot rejasi doirasida amalga oshirildi.

Tadqiqot maqsadi dizel yoqilg'isi uchun samarali depressor dispergirlovchi qo'shimchalar olish texnologiyasini ishlab chiqishdan iborat.

Tadqiqotning vazifalari: depressor dispergirlovchi qo'shimchalar sintez qilish usullarini ishlab chiqish, ularning tuzilishi va fizik-kimyoviy xususiyatlarini tadqiq qilish;

sanoat miqyosidagi texnologiyani yaratish uchun samarali depressor dispergirlovchi qo'shimchalar ishlab chiqarishning texnologik parametrlari hamda maqbul sharoitlarini aniqlash;

olingan qo'shimchalarning samaradorligiga ta'sir qiluvchi asosiy omillarni aniqlash;

dizel yoqilg'isining asosiy sifat ko'rsatkichi bo'lgan bulutlanish, qotish, filtrlanish haroratiga, depressor dispergirlovchi qo'shimchasining kimyoviy ta'sirini tadqiq qilish;

samarali depressor dispergirlovchi qo'shimchalar olish texnologiyasini ishlab chiqish.

Tadqiqotning obyekti sifatida EKO-L, YEVRO-5 va YEVRO-4 dizel yoqilg'isiga PEO-1, SI-4 va ALG-2 depressor dispergirlovchi qo'shimchalar qo'shish orqali dizel yoqilg'isining xirlanish, filtirlanish, qotish haroratlarini ta'sir o'rganishdan iborat.

Tadqiqotning predmeti depressor dispergirlovchi qo'shimchalarni sintez qilish va ta'sir mexanizmini aniqlash, turli konsentratsiya, harorat va muhitlarda ishlash samaradorligini tadqiq qilish, shuningdek ishlab chiqarish texnologiyasini takomillashtirishdan iborat.

Tadqiqot usullari. Dissertatsiya ishida sintez qilib olingan depressor dispergirlovchi qo'shimchalar IQ spektroskopiyasi, gaz xromatografik-mass-spektrometriyasi, fizik-kimyoviy, fizik-mexanik va ekspluatatsion xossalarini o'rganishning nazariy hamda eksperimental tahlil usullardan foydalanilgan.

Tadqiqotning ilmiy yangiligi quyidagilardan iborat:

pentaeritritol olien kislota asosida PEO-1, etilenpropilen kauchuk benzoil peroksid katalizatori asosida SI-4 va ikkilamchi polietilentereftalat glitserin va olein kislota asosida ALG-2 markali depressor dispergirlovchi qo'shimchalar olingan;

polietilentereftalat, etilenpropilen kauchuk, pentaeritritol, glitserin va olein kislota asosida depressor qo'shimchalar sintez qilishning maqbul sharoitlari aniqlangan;

olingan depressor dispergirlovchi qo'shimchalar dizel yoqilg'isiga 0,01-0,5% qo'shilganda dizel yoqilg'isining qotish haroratini PEO-1 da (T_q) -18°C gacha, SI-4 da (T_q) -24°C gacha, ALG-2 da (T_q) -27°C gacha pasayishi aniqlangan;

pentaeritritol, olien kislota asosida PEO-1 va ikkilamchi polietilentereftalat, glitserin, olein kislota asosida ALG-2 markali depressor dispergirlovchi qo'shimchalarni olish texnologiyasi ishlab chiqilgan.

Tadqiqotning amaliy natijalari quyidagilardan iborat:

mahalliy xomashyolar asosida yangi samarali depressor dispergirlovchi qo'shimchalar olish texnologiyasi ishlab chiqilgan;

dizel yoqilg'isini past haroratda qo'llanganda yozgi dizel yoqilg'isining past haroratli xususiyatlarini yaxshilash uchun qotish haroratini pasaytiruvchi samarali depressor dispergirlovchi qo'shimchasining ta'sirlashuv jarayoni texnologik shartlarining ko'rsatkichlari aniqlangan;

ekspluatatsion omillarga qarab yozgi dizel yoqilg'isiga qotish haroratini pasaytiruvchi depressor dispergirlovchi qo'shimchasini kiritish usuli ishlab chiqilgan;

ishlab chiqilgan tavsiyalarning aprobatitsiyasiga asoslanib, bazaviy dizel yoqilg'isida depressor dispergirlovchi qo'shimchasidan foydalanish dizel yoqilg'isining ish faoliyatini oshirishi va qishda dizel dvigatellarining muammosiz ishlashini ta'minlashi ilmiy isbotlangan.

Tadqiqot natijalarining ishonchliligi sintez qilingan yangi tarkibli depressor dispergirlovchi qo'shimchalarning tarkibi, tuzilishi va xossalarini o'rganishda zamonaviy kimyoviy va fizik-kimyoviy usullar: IQ-spektroskopiya, gaz xromatografiyasi – mass - spektrometriyasi usullardan foydalanilganligi hamda depressor dispergirlovchi qo'shimchalar olish texnologiyalarining ishlab chiqilganligi, ularning sanoat-tajriba amaliyotlarida sinovdan o'tkazilganligi hamda ishlab chiqarishga joriy etilganligi bilan izohlanadi.

Tadqiqot natijalarining ilmiy va amaliy ahamiyati. Tadqiqot natijalarining ilmiy ahamiyati samarali depressor dispergirlovchi qo'shimchalar sintez qilish, sintez jarayonida turli omillarning ta'siri, maqbul sharoitlarni aniqlanganligi hamda dizel yoqilg'isining fizik-kimyoviy xususiyatlariga kompleks ta'sir qiluvchi mahsulotlar olishning ilmiy asoslangan usullari aniqlanganligi, shuningdek ilmiy-tadqiqot natijalarini asosida takomillashtirilgan hamda depressor dispergirlovchi qo'shimchalar olishning ilmiy asoslari ishlab chiqilganligi bilan izohlanadi.

Tadqiqot natijalarining amaliy ahamiyati sintez qilib olingan samarali depressor dispergirlovchi qo'shimchalar dizel yoqilg'isining qotish, filtrlanish va bulutlanish haroratiga ta'sirini aniqlash orqali dizel yoqilg'isi ishlab chiqarish sanoatida qo'llaniladigan texnologik sxemaga muvofiq, sanoat miqyosida depressor dispergirlovchi qo'shimchalar ishlab chiqarishga xizmat qiladi.

Tadqiqot natijalarining joriy qilinishi. Samarali depressor dispergirlovchi qo'shimchalar ishlab chiqarish va ularni qo'llash texnologiyalarini ishlab chiqish bo'yicha olingan ilmiy tadqiqot natijalari asosida:

samarali depressor dispergirlovchi qo'shimchalar "O'zbekneftgaz" "Muborak gazni qayta ishlash zavodi" AJ ning "2022-2025 yillarda amaliyotga joriy etish bo'yicha istiqbolli ishlanmalar ro'yxati"ga kiritilgan ("Muborak gazni qayta ishlash zavodi" AJ ning 2025 yil 18 iyundagi 01/2-15-1654-son ma'lumotnomasi). Natijada, depressor dispergirlovchi qo'shimcha dizel yoqilg'isiga 0,5% qo'shilganda, dizel yoqilg'isining qotish harorati minus 10°C dan minus 27°C ga tushirish imkonini beradi;

sintez qilingan ALG-2, PEO-1, hamda SI-4 markali korroziya ingibitor qo'shimchalari "O'zbekneftgaz" "Muborak gazni qayta ishlash zavodi" AJ amaliyotga joriy etilgan ("Muborak gazni qayta ishlash zavodi" AJ ning 2025 yil 18 iyundagi 01/2-15-1654-son ma'lumotnomasi). Natijada, gaz, gazakondensat

quduqlari va quvur sistemalarida yuzaga keluvchi korroziyadan po'lat materiallarini 85,3-91,8 % gacha himoyalash imkonini bergan.

Tadqiqot natijalarining aprobatsiyasi. Ish natijalari 7 ta, jumladan 5 ta xalqaro va 2 ta respublika ilmiy-amaliy anjumanlarida ma'ruza qilinib muhokamadan o'tkazilgan.

Tadqiqot natijalarining e'lon qilinganligi.

Dissertatsiya mavzusi bo'yicha jami 13 ta ilmiy ishlar chop etilgan. O'zbekiston Respublikasi, fanlar akademiyasi huzuridagi Oliy attestatsiya komissiyasining doktorlik dissertatsiyalari asosiy ilmiy natijalarini chop etish tavsiya etilgan ilmiy nashrlarda 6 ta maqola, 2 ta respublika va 4 tasi xorijiy jurnallarda nashr etilgan.

Dissertatsiyaning tuzilishi va hajmi. Dissertatsiya tarkibi kirish, beshta bob, xulosa, foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati va ilovadan iborat. Dissertatsiyaning hajmi 111 betni tashkil etgan.

DISSERTATSIYANING ASOSIY MAZMUNI

Kirish qismida dissertatsiya mavzuning dolzarbligi va zarurati asoslangan, tadqiqotning maqsadi va vazifalari, obyektlari va predmetlari, o'rganilganlik darajasi, tadqiqotning usullari tavsiflangan, tadqiqotning O'zbekiston Respublikasi fan va texnologiyalar rivojlanishining ustuvor yo'nalishlariga mosligi ko'rsatilgan, tadqiqotning ilmiy yangiligi va amaliy ahamiyati ochib berilgan, tadqiqot natijalarini amaliyotga joriy etish, o'tkazilgan tadqiqotlarning ishonchiligi, aprobatsiyasi va natijalarning nashr qilinishi, dissertatsiyaning hajmi, tuzilishi bo'yicha ma'lumotlar keltirilgan.

Dissertatsiyaning **“Dizel yoqilg'isi uchun samarali depressor-dispergirlovchi qo'shimchalar olishning zamonaviy texnologiyalari”** deb nomlangan birinchi bobida tarkibida O'zbekiston va dunyodagi dizel yoqilg'isi turlari va ularga qo'yilgan talablar, dizel yoqilg'isiga qo'shiladigan depressor dispergirlovchi qo'shimchalarni uglevodorod tarkibi va xususiyatlarining haroratga bog'liqligini o'rganish bosqichlari, depressor qo'shimchalarni kimyoviy tarkiblari va ishlash mexanizimi keltirilgan.

Dissertatsiyaning **“Mahalliy xomashyolar asosida depressor-dispergirlovchi qo'shimchalar olish hamda fizik-kimyoviy xossalarini o'rganish”** deb nomlangan ikkinchi bobida tadqiqot obyektlarining xossalari va qo'llanilgan usullar ikkilamchi xomashyo polietilentereftalat asosida depressor dispergirlovchi qo'shimchalar olish hamda fizik –kimyoviy xossalarini tadqiq etish bayon etilgan.

PETGL-1 va yog' kislotalari asosida olingan ALG-2 depressor qo'shimchalar birikmasi ikki xil usulda olinadi. Birinchi usulda moddalarni o'zaro tasir qilish orqali bunda asosan katta rolni temperatura o'ynaydi. Ikkinchi usulda esa katalizatoridan foydalaniladi. Bunda uch og'izli kolba meshalka va qaytarma sovutgich bilan jixozlangan bo'lib, maydalangan 5 g ikkilamchi polietilentereftalat va 20 g glitserin solinib reaksiyaning davomiyligi 1 soatdan 3 soatgacha, jarayon katalizator $Zn(CH_3COO)_2$ 0,3 g foydalanib olib boriladi. Harorat 160-180 °C da 1 soat davomida aralashtiriladi. Keyin 30 g miqdorda olein kislotasi qo'shiladi, hosil


bo'lgan aralashma 120-260 °C haroratgacha qizdiriladi. So'ngra aralashma qo'shimcha 1 soat davomida aralashtiriladi va ALG-2 maxsulot ajratib olinadi.

1-jadval

PETGL-1 va yog' kislotalari asosida ALG-2 markali depressor qo'shimcha sintez qilish unumi.

№	Moddalar miqdori			Harorat °C	Vaqt soat	ALG-2 unumi
	PETGL-1	Zn(CH ₃ COO) ₂	Olein kislota			
1	1	0.2	1	120°C	0,30	49%
2	1	0.275	2	160°C	1	65.4%
3	1	0.3	3	220°C	2	78.8%
4	1	0.375	4	240°C	3	73.9%
5	1	0.4	5	260°C	4	71,2%


ALG-2 depressor qo'shimchaning IQ spektrida olein kislotadagi -CH₃ guruhiga xos bo'lgan assimetrik valent tebranishlari 2920,23 sm⁻¹ maydonda, -CH₃ guruhiga xos simmetrik valent tebranishlari 2850,79 sm⁻¹ kuchlanishli maydonda va kuchsiz tebranishlarda kuzatiladi. -CH₂- guruhining kuchsiz intensivlikda 2962,66 sm⁻¹ sohadagi chastotasi paydo bo'lishi aniqlandi. 2727,35 sm⁻¹ kuchlanishli maydonda CH- guruhiga xos valent tebranishlarda kuzatiladi. 2256,71 sm⁻¹ sohada CH= guruhga xos bo'lgan o'rtacha kuchsiz intensivlikdagi signallarnin namayon bo'lishi va 1616,35 sm⁻¹ sohada C=C guruhiga xos valent tebranishlarni namayon qilishi PETGL-1 makromolekulani olein kislota bilan reaksiyaga kirishganligini ko'rsatadi. 1770,65 sm⁻¹ da intensiv chastota – ftal kislotadagi karbonil guruhining kuchsiz sohada gipsaxrom valent tebranishlariga xos hisoblanadi, 1734,01 sm⁻¹ esa olein kislotadagi karbonil guruhga xos valent tebranishlarni hosil qiladi.




1-rasm. ALG-2 depressor qo'shimchaning IQ spektri.

Pentaeritritol va yog' kislotalari asosida depressor qo'shimchalarni olishda reaksiya aralashtirgich va termometr bilan jihozlangan uch bo'yinli kolbalarda o'tkazildi. Kolbaga 10 g pentaeritritol spirtidan solib ustiga erib ketgunicha pentaeritritol massasiga nisbatan 30% miqdorda 1% ortofosfor kislota katalizatori eritilgan toluol erituvchisi va 40 g olien kislota solinadi. Kolbadagi reaksiya aralashmasi 150-160°C atmosfera bosimida 4 soat davomida aralashtirib qizdirildi.

Keyin reaksiya aralashmasi xona harorati 20-25°C gacha sovutiladi. Reaksiya tugagandan so'ng, reaksiyaga kirmagan olien kislotani neytrallash uchun natriy gidroksidning 5% eritmasidan 8g ishlatilgan. Neytrallash jarayonida aralashmaning efir qismiga avval qo'shilgan 5% li natriy gidroksid eritmasidan lakmus qog'ozi ko'k rangga kirgunicha qo'shildi. Olingan efir quyi suvli qatlamdan Buxner voronkasida ajratildi va g'ovakli filtr qog'ozidan filtrlandi. Filtrlashdan so'ng olien kislotali efiri PEO-1 hosil bo'ldi va reaksiya hosildorligi 42,29 g (84,58%) ni tashkil etdi.




Depressor qo'shimchasining IQ spektridagi olein kislotadagi -CH₃ guruhiga xos bo'lgan assimetrik valent tebranishlari 2951,09 sm⁻¹ maydonda, -CH₃ guruhiga xos simmetrik valent tebranishlari 2899,01 sm⁻¹ kuchlanishli maydonda va kuchsiz tebranishlarda kuzatiladi. -CH₂- guruhining kuchsiz intensivlikda 2835,36 sm⁻¹ sohadagi chastotasi paydo bo'lishi aniqlandi. 2727,35 sm⁻¹ kuchlanishli maydonda CH- guruhiga xos valent tebranishlarda kuzatiladi. 3034,03 va 3005,10 sm⁻¹ co'xada CH= rypyxra xos bo'lgan o'rtacha kuchsiz intensivlikdagi signallarning namayon bo'lishi va 2031,04 sm⁻¹ sohada C=C guruhiga xos valent tebranishlarni namayon qilishi PE makromolekulani oliyen kislota bilan reaksiyaga kirishganligini ko'rsatadi.



2 - rasm. PEO-1 depressor qo'shimchaning IQ spektri.

Etilenpropilen kauchuk asosida olingan depressor qo'shimchani olishda uch og'izli kolba meshalka va qaytarma sovutgich bilan jixozlab, maydalangan 5 g etilenpropilen kauchuk va 20 g EKO dizel yoqilg'isi solinib reaksiyaning davomiyligi 1 soatdan 3 soatgacha, jarayon katalizator benzoil peroksiddan 0,3 g foydalanib olib boriladi. Harorat 70-80 °C da 1 soat davomida aralashtiriladi. Hosil bo'lgan aralashma 100-120°C haroratgacha qizdiriladi. So'ngra aralashma

qo'shimcha 1 soat davomida aralashtiriladi va hosil bo'lgan maxsulot ajratib olinadi. SI-4 depressor qo'shimchaning olishda benzoil peroksid katalizatoridan foydalanildi. SI-4 depressor qo'shimchaning tuzilishini va fizik – kimyoviy xossalarini urganish maqsadida 3-rasmdagi IQ spektri o'rganildi.



3 - rasm. SI-4 depressor qo'shimchaning IQ spektri.

SI-4 depressor qo'shimchaning IQ spektrida o'rtacha kuchli sohada to'yingan uglevodorodlardagi $-CH_3$ guruhiga xos asimmetrik valent tebranishlarning $2954,95\text{ sm}^{-1}$ sohada, $-CH_3$ guruhiga xos simmetrik valent tebranishlarning $2848,96\text{ sm}^{-1}$ kuchsiz sohada hamda $-CH_2-$ guruhiga xos valent tebranishlarning $2918,30\text{ sm}^{-1}$ kuchli sohada namayon bo'lishini aniqlandi. To'yingan uglevodorodlarga xos $-CH_3$ guruhining asimmetrik deformatsion tebranishi $1456,26\text{ sm}^{-1}$ o'rtacha kuchli sohada hamda $-CH_2-$ guruhiga xos simmetrik deformatsion tebranishi $1377,17\text{ sm}^{-1}$ kuchsiz sohada namayon bo'lishi EKO DYO ni dipol-dipol ta'sirlar hisobiga EP kauchuk sirt faol modda bilan ta'sirlashganligi sababli $-CH_3$, $-CH_2-$ valent tebranishlari kuchsiz sohaga gibsaxrom siljish hosil qiladi.

Dissertatsiyaning **“Mahalliy va ikkilamchi xomashyolar asosida olingan depressor-dispergirlovchi qo'shimchalarning fizik – mexanik xossalarini tadqiq etish”** deb nomlangan uchinchi bobida depressor dispergirlovchi qo'shimchalarni fizik-mexanik xususiyatlarini tadqiq qilish orqali depressor qo'shimchalarini o'rganishning birlamchi bosqichi ularning mosligini aniqlash edi, ya'ni moslikning to'liqligi va dinamikasiga ta'sir qiluvchi omillarga qarab yoqilg'ida eruvchanlik o'rganildi. Shu maqsadda turli ishlab chiqarish partiyalaridagi mahalliy dizel yoqilg'isining 3 ta namunasi olindi. $140-160\text{ }^{\circ}\text{C}$ gacha qizdirilgan yoqilg'i namunalarida qo'shimchalarning eruvchanligi (og'irligi %) aniqlandi. Haqiqiy erigan qo'shimchalar miqdorini aniqlash uchun eritmani xona haroratida 2 soat davomida cho'ktirgandan so'ng, cho'kma filtrlanadi, quritiladi va tortiladi. Natijalardan ko'rinib turibdiki, depressor dispergirlovchi qo'shimchalar PEO-1 va SI-4, ALG-2 yoqilg'i bilan eng katta muvofiqlikni namayon qiladi. Shunday qilib, ALG-2 va PEO-1 yoqilg'ida 40 va $110\text{ }^{\circ}\text{C}$ da to'liq eriydi, SI-4 ning eruvchanligi $125\text{ }^{\circ}\text{C}$ da 80 va 88% ni tashkil etadi.

Taklif etilayotgan dissertatsiya tadqiqotida yozgi dizel yoqilg'isining turta namunasida sintez qilingan uchta PEO-1, SI-4, ALG-2 markalardagi depressor qo'shimchalarni $0,01$ dan $0,5$ foizgacha bo'lgan konsentratsiyada dizel yoqilg'isiga qo'shib ularni ta'siri etishi tajriba sinovlardan o'tkazildi.

Ma'lumki, depressor qo'shimchalar dizel yoqilg'isining filtrlash haroratining


cheklanishi (T_f) va bulutlashish harorati (T_x) kabi muhim past haroratli ko'rsatkichlariga ta'sir qilmaydi, ammo qotish harorati (T_q) yaxshilash xususiyatiga ega. Bu dizel yoqilg'isiga depressor qo'shimchani kiritish atrof-muhit harorati pasayganda yonilg'i hajmida hosil bo'lgan n-parafin uglevodorod kristallarining hajmini kamaytirishga yordam berishi bilan izohlanadi, ammo kristallanadigan uglevodorodlar miqdori o'zgarmaydi, buning natijasida yoqilg'ining (T_x) si kamaymaydi. Biz taklif etayotgan depressor qo'shimchalari qo'shilgan namunalarda samaradorligi yuqori ekanligi ularni bulutlashish harorati (T_x) ko'rsatkichi 1-3 °C ga oshganligi tajriba sinov jarayonlarda tadqiq etildi.

Shunday qilib 3 ta namunadagi (EKO, YEVRO-4, YEVRO-5) yozgi dizel yoqilg'isi uglevodorodlar tarkibiga turli konsentratsiyadagi ALG-2, PEO-1, SI-4, markalardagi depressor qo'shimchalarning ta'sirini tadqiq etildi.

ALG-2, PEO-1, SI-4, markalardagi depressor qo'shimchalarni EKO markali yozgi dizel yoqilg'isi uglevodorodlar tarkibiga turli konsentratsiyada qo'shib ularni xususiyatlari o'rganildi.


ALG-2 markali depressor qo'shimchaning fizik-mexanik xossalari

ALG-2 markadagi depressor qo'shimchasi 0,01-0,5% miqdorda EKO markali yozgi dizel yoqilg'isiga qo'shilganda bulutlashish harorati (T_b) -5°C dan -23 °C haroratgacha tushdi, YEVRO-4 markali yozgi dizel yoqilg'isiga qo'shilganda -3°C dan -18 °C haroratgacha tushdi va YEVRO-5 markali yozgi dizel yoqilg'isiga qo'shilganda -4°C dan -16 °C haroratgacha tushgani aniqlandi.




4 - rasm. Turli xil konsentratsiyadagi ALG-2 depressor qo'shimchani EKO, YEVRO-4 va YEVRO-5 dizel yoqilg'ilariga qo'shilganda bulutlashish haroratiga (T_b) ta'siri.

ALG-2 markadagi depressor qo'shimchasi 0,01-0,5% miqdorda EKO markali yozgi dizel yoqilg'isiga qo'shilganda filtrlash harorati (T_f), -7 °C dan -25 °C haroratgacha tushdi, YEVRO-4 dizel yoqilg'isiga qo'shilganda -5 °C dan -20 °C haroratgacha tushdi va YEVRO-5 dizel yoqilg'isiga qo'shilganda -6 °C dan -18 °C haroratgacha tushganligi aniqlandi.



5-rasm. Turli xil konsentratsiyadagi ALG-2 depressor qo‘shimchani EKO, YEVRO-4 va YEVRO-5 dizel yoqilg‘ilariga qo‘shilganda filtrlash haroratiga (T_f) ta’siri.

ALG-2 markadagi depressor qo‘shimchasi 0,01-0,5% miqdorda EKO markali yozgi dizel yoqilg‘isiga qo‘shilganda qotish harorati (T_q) -9 °C dan -27 °C haroratgacha tushdi, YEVRO-4 markali yozgi dizel yoqilg‘isiga qo‘shilganda -7 °C dan -22 °C haroratgacha tushdi va YEVRO-5 markali yozgi dizel yoqilg‘isiga qo‘shilganda -8 °C dan -20 °C haroratgacha tishganligi aniqlandi.




6-rasm Turli xil konsentratsiyadagi ALG-2 depressor qo‘shimchani EKO, YEVRO-4, YEVRO-5 dizel yoqilg‘ilariga qo‘shilganda qotish haroratiga (T_q) ta’siri.

ALG-2 markalardagi depressor qo‘shimchalarni EKO, YEVRO-4 va YEVRO-5 markali yozgi dizel yoqilg‘isiga turli konsentratsiyada qo‘shilib ularni fizik-mexanik xususiyatlari o‘rganish natijalari tahlili 4-6- rasmlarda keltirildi.


PEO-1 depressor qo‘shimchani fizik-mexanik xossalari

PEO-1 markadagi depressor qo‘shimchasi 0,01-0,5% miqdorda EKO markali yozgi dizel yoqilg‘isiga qo‘shilganda bulutlashish harorati (T_b) -5°C dan -14 °C haroratgacha tushdi, YEVRO-4 markali yozgi dizel yoqilg‘isiga qo‘shilganda -3°C dan -13 °C haroratgacha tushdi va YEVRO-5 markali yozgi dizel yoqilg‘isiga qo‘shilganda -4°C dan -12 °C haroratgacha tushgani aniqlandi.



7-rasm. Turli xil konsentratsiyadagi PEO-1 depressor qo‘shimchalarni EKO, YEVRO-4 va YEVRO-5 dizel yoqilg‘ilariga qo‘shilganda bulutlashish haroratiga (T_b) ta’siri.


PEO-1 markadagi depressor qo‘shimchasi 0,01-0,5% miqdorda EKO markali yozgi dizel yoqilg‘isiga qo‘shilganda filtrlash harorati (T_f) -7 °C dan -16 °C haroratgacha tushdi, YEVRO-4 markali yozgi dizel yoqilg‘isiga qo‘shilganda esa -5 °C dan -15 °C haroratgacha tushdi va YEVRO-5 markali yozgi dizel yoqilg‘isiga qo‘shilganda -6 °C dan -14 °C haroratgacha tushganligi aniqlandi.



8-rasm. Turli xil konsentratsiyadagi PEO-1 depressor qo‘shimchani EKO, YEVRO-4 va YEVRO-5 dizel yoqilg‘ilariga qo‘shilganda filtrlash haroratiga (T_f) ta’siri.

PEO-1 markadagi depressor qo‘shimchasi 0,01-0,5% miqdorda EKO markali yozgi dizel yoqilg‘isiga qo‘shilganda qotish harorati (T_q) -9 °C dan -18 °C haroratgacha tushdi, YEVRO-4 markali yozgi dizel yoqilg‘isiga qo‘shilganda esa -7 °C dan -17 °C haroratgacha tushdi va YEVRO-5 markali yozgi dizel yoqilg‘isiga

qo‘shilganda -8°C dan -16°C haroratgacha tushganligi aniqlandi.




9-rasm. Turli xil konsentratsiyadagi PEO-1 depressor qo‘shimchani EKO, YEVR0-4 va YEVR0-5 dizel yoqilg‘ilariga qo‘shilganda qotish haroratiga (T_q) ta’siri.

PEO-1 markalardagi depressor qo‘shimchalarni EKO, YEVR0-4 va YEVR0-5 markali yozgi dizel yoqilg‘isiga turli konsentratsiyada qo‘shilib ularni fizik-mexanik xususiyatlari o‘rganish natijalari tahlili 7-9- rasmlarda keltirildi.

SI-4 markali depressor qo‘shimchani fizik-mexanik xossalari


SI-4 markadagi depressor qo‘shimchasi 0,01-0,5% miqdorda EKO markali yozgi dizel yoqilg‘isiga qo‘shilganda bulutlashish harorati (T_b) -5°C dan -20°C haroratgacha tushdi, YEVR0-4 markali yozgi dizel yoqilg‘isiga qo‘shilganda -3°C dan -18°C haroratgacha tushdi va YEVR0-5 markali yozgi dizel yoqilg‘isiga qo‘shilganda -4°C dan -14°C haroratgacha tushganligi aniqlandi.



10-rasm. Turli xil konsentratsiyadagi SI-4 depressor qo‘shimchani EKO, YEVR0-4 va YEVR0-5 dizel yoqilg‘ilariga qo‘shilganda bulutlashish haroratiga (T_b) ta’siri.


SI-4 markadagi depressor qo‘shimchasi 0,01-0,5% miqdorda EKO markali yozgi dizel yoqilg‘isiga qo‘shilganda filtrlash harorati (T_f) -7°C dan -22°C haroratgacha tushdi, YEVR0-4 markali yozgi dizel yoqilg‘isiga qo‘shilganda -5°C

dan -20°C haroratgacha tushdi va YEVIRO-5 markali yozgi dizel yoqilg'isiga qo'shilganda -6°C dan -18°C haroratgacha tushganligi aniqlandi.



11-rasm. Turli xil konsentratsiyadagi SI-4 depressor qo'shimchani EKO, YEVIRO-4 va YEVIRO-5 dizel yoqilg'ilariga qo'shilganda filtrlash haroratiga (T_f) ta'siri.

SI-4 markadagi depressor qo'shimchasi 0,01-0,5% miqdorda EKO markali yozgi dizel yoqilg'isiga qo'shilganda qotish harorati (T_q) -9°C dan -24°C haroratgacha tushdi, YEVIRO-4 markali yozgi dizel yoqilg'isiga qo'shilganda -7°C dan -22°C haroratgacha tushdi va YEVIRO-5 markali yozgi dizel yoqilg'isiga qo'shilganda -8°C dan -20°C haroratgacha tushganligi aniqlandi.



12-rasm. Turli xil konsentratsiyadagi SI-4 depressor qo'shimchani EKO, YEVIRO-4 va YEVIRO-5 dizel yoqilg'ilariga qo'shilganda qotish haroratiga (T_q) ta'siri.


SI-4 markalardagi depressor qo'shimchalarni EKO, YEVIRO-4 va YEVIRO-5 markali yozgi dizel yoqilg'isiga turli konsentratsiyada qo'shib ularni fizik-mexanik xususiyatlari o'rganish natijalari tahlili 10-12- rasmlarda keltirildi.

Shunday qilib ALG-2, PEO-1, SI-4 markalardagi depressor qo'shimchalarni EKO-L, YEVIRO-4 va YEVIRO-5 markali yozgi dizel yoqilg'isiga 0,01-0,5% konsentratsiyalarda qo'shish orqali ularning fizik-mexanik xususiyatlarini o'rganish natijalari tahlil qilinganda yozgi dizel yoqilg'ilarini talab etilgan ko'rsatkichlaridan pasaygan bo'lib, bulitlashish harorati (T_b) -23°C gacha, qotish harorati (T_q) -27°C gacha va filtrlash harorati (T_f) -25°C gacha past haroratlarda depressorlarni ishlashi oshganligini ko'rsatadi. Bundan tashqari sintez qilingan

depressorlarni ichida eng yuqori ko'rsatgichga ega bo'lganlari ALG-2, PEO-1 va SI-4 markalar bo'lib, boshqa taklif etilgan namunalardan qaraganda barcha dizel yoqilg'ilarida yaxshi natilarga erishildi.

Dissertatsiyaning **“Dizel yoqilg'isi uchun samarali depressor dispergirlovchi qo'shimchalarni ishlab chiqarish texnologiyasi va texnik-iqtisodiy samaradorligini hisoblash”** deb nomlangan to'rtinchi bobida pentaeritritol va yog' kislotalari asosida olingan pentaeritritetraoliyen qo'shimchadan korroziya ingibitor olinish texnologiyasi va ALG-2 depressor dispergirlovchi qo'shimchalar olish texnologiyasi bayon etilgan.

Toshkent kimyo texnologiya ilmiy-tadqiqoti instituti MChJ da dizel yoqilg'isining qotish harorarini pasaytiruvchi va ingibitor vazifasini bajaruvchi polifunksional qo'shimchalar pentaeritritol va olein kislota asosida PEO-1, polietilentereftalat hamda olien va glitserin asosidagi ALG-2 va etilenpropilen kauchuk asosida SI-4 qo'shimchalar sintez qilindi va dizel yoqilg'isining qotish haroratini pasaytiruvchi depressor dispergirlovchi qo'shimchalar olish texnologiyasi ishlab chiqilgan.




1-
pentaeritritol; 2,11-olein kislota; 3-ortofosfat kislota; 4,15- kondensator; 5,13-aralashtigichli reaktor; 6-nasos; 7-tindirgich; 9, 14-filtir, 8-suv bachok; 10, 16-chiqindi maxsulot; 12-натрий гидроксид; 17- tayyor mahsulot.

13-rasm. Pentaeritrittetraoliyen ishlab chiqarish texnologiyasi

Ushbu usul bilan korroziya ingibitor olishda asosan (5) ingibitor olishi uchun tayyorlangan reaktorga (1) pentaeritritol solinadi va ustiga erib ketgunicha pentaeritritol massasiga nisbatan 30% miqdorda 1% ortofosfor kislota (3) katalizatori toluol erituvchisida eritilgan holda solinadi va ustiga (2) olein kislota solinib 4,0 soat davomida 150-160°C haroratgacha qizdirib doimiy aralashtiriladi. Keyin reaksiya aralashmasi xona harorati 20-25°C gacha (7) tindirgichda sovutiladi. Reaksiya tugagandan so'ng, (9) filtirdan o'tgan reaksiya maxsuloti tarkibidagi reaksiyaga kirmagan (11) olien kislota ni neytrallash uchun (13) aralashtigichli reaktorga yuboriladi, (12) natriy gidroksidning 5% eritmasidan solinib kislota neytrallanadi. Olingan poliefir (14) feltirdan o'tkazilib (17) tayyor mahsulot olinadi. Texnologik jarayon 13- rasmda keltirilgan.

Ushbu usul bilan depressor qo'shimchalarni olishda asosan (3) depressor qo'shimchalarni olishi uchun tayyorlangan reaktorga, (1) polietilentereftalat va (2) glitserin kimyoviy mahsulotlar solinib 3,0 soat davomida 180°C haroratgacha doimiy aralastiriladi. So'ngra hosil bo'lgan (7) PETGL-1 aralashmaga (8) olien kislotasi solinib (9) reaktorda 220°C haroratda reaksiya 1-3 soat davom ettiriladi. Hosil bo'lgan polimer gomogen eritma feltirlanadi (12) tayyor mahsulot maxsus jixozlar yordamida qadoqlanadi.



1- ikkilamchi polietilentereftalat; 2- glitserin; 7-PETGL-1 depressor qo'shimcha; 8 –olein kislotasi; 3,9-reaktor; 5-filter; 6-nasos; 4,10,-kondensator; 11-suv bachok; 12- tayyor mahsulot.

14-rasm. Ikkilamchi xom- ashyolar asosida oligomer depressor qo'shimchalarni olishning texnologiksi

Qayta ishlangan polietilentereftalat, olien kislota va glitserin asosidagi depressor dispergirlovchi qo'shimchalar ishlab chiqarishning texnik-iqtisodiy samaradorligi. Ikkilamchi xom- ashyolar asosida oligomer depressor qo'shimchalarni (ALG-2) iqtisodiy samaradorligini baholashda tannarxni analoglar sifatida respublikamizda qo'llanilib kelinayotgan Hi-Gear HG3427R Superantigel (Rossiya) markali depressor bilan taqqoslashni o'z ichiga oladi. 2-jadvalda 1 tonna Ikkilamchi xom- ashyolar asosida oligomer depressor qo'shimchani (ALG-2) ishlab chiqarish uchun xomashyolar narxi ko'rsatilgan.

2 – jadval

1 tonna ALG-2 depressor qo'shimchasini ishlab chiqarish uchun xomashyolar

№	Xomashyolar	O'lchov birligi	1t mahsulot olish uchun sarf	Xomashyo narxi, so'm	Jami, so'mma, so'm
1	polietilentereftalat	kg	450	2 000	9 000 000
2	Glitserin	kg	1350	20 000	27 000 000
3	Olien kislotasi	kg	1350	32 500	43 875 000
4	Rux asetat	kg	27	60 000	1 620 000
Jami					81 495 000

2-jadvalda keltirilgan ma'lumotlarga ko'ra 1 tonna ALG-2 depressor qo'shimchasini olish uchun umumiy narxi 81 495 000 so'mni tashkil etadi. Bundan tashqari 1 tonna ALG-2 depressor qo'shimchasini ishlab chiqarishning umumiy xarajatlari 3-jadvalda keltirilgan.

1 tonna ALG-2 depressor qo‘shimchasini ishlab chiqarishning umumiy xarajatlari

Nomlanishi	Narxi, so‘m
Ish haqi, sum/1 kun	200 000
Yagona ijtimoiy to‘lov 15%	45 000
ALG-2 depressor qo‘shimchasini	81 495 000
Qo‘shimcha xarajatlar	40 000
Kutilmagan holatlar	40 000
Foyda 10%	8 495 000
QQS 12%	9 779 400
Jami:	100 094 400

3-jadvaldan ko‘rinib turibdiki 1 tonna ALG-2 depressor qo‘shimchasini ishlab chiqarish uchun narxlarning umumiy tarkibi 100 094 400 so‘mni (1kg/100 094,4 so‘m) tashkil etdi. Chet eldan keltirilgan Hi-Gear HG3427R Superantigelni umumiy narxi 1t-147000 000 so‘m (1kg/147 000 so‘m) ni tashkil etishi aniqlandi. Shunday qilib iqtisodiy samaradorlik $147000\ 000 - 100\ 094\ 400 = 47\ 000\ 000$ so‘m foyda qilsa bo‘ladi.

XULOSALAR

1. Dizel yoqilg‘ilsi uchun samarali depressor-dispergirlovchi qo‘shimchalar olishning zamonaviy texnologiyasi taklif etildi.

2. Samarali depressor qo‘shimchalar tarkibi va tuzilishi IQ-spektroskopiyasi orqali tahlil qilindi hamda ularni agregat holati, pH muhiti, zichligi, erituvchilar bilan ta’siri ko‘rib chiqildi.

3. Ikkilamchi polietilentereftalat, glitserin va olien kislota asosidagi depressor qo‘shimchaning fizik-kimyoviy xususiyatlari va tarkibi aniqlandi.

4. Pentaeritritol va olien kislota asosidagi depressor qo‘shimchalarning fizik-kimyoviy xususiyatlari va tarkibi aniqlandi.

5. Etilenpropilen kauchuk asosida olingan depressor qo‘shimchalarning fizik-kimyoviy xususiyatlari va tarkibi aniqlandi.

6. Dizel yoqilg‘ilsi uchun samarali depressor qo‘shimchalarning eng maqbul konsentratsiyasi 0,1-0,5% oralig‘ida ekanligi aniqlandi, bu esa qotish harorati -24°C dan -27°C gacha bo‘lgan dizel yoqilg‘isini olish imkonini beradi.

Taklif etilayotgan depressor qo‘shimchalar olish va sanoatlashtirish imkoniyatlari o‘rganilib chiqildi hamda ishlab chiqarishning texnologik jarayonlarni

8. Dizel yoqilg‘ilsi uchun samarali depressor-dispergirlovchi qo‘shimchalar “Muborak gazni qayta ishlash zavodi” (18.06.2025 yildagi 01/2-15-1654-son ma’lumotnomasi) ochiq hissadorlik jamiyatlarida ishlab chiqarish korxonalarida sinovdan o‘tkazildi.

**НАУЧНЫЙ СОВЕТ DSc.30/2025.27.12.K/T.01.01 ПО
ПРИСУЖДЕНИЮ УЧЕНОЙ СТЕПЕНИ ПРИ ТАШКЕНТСКОМ
НАУЧНО-ИССЛЕДОВАТЕЛЬСКОМ ИНСТИТУТЕ
ХИМИЧЕСКОЙ ТЕХНОЛОГИИ**

**ТАШКЕНТСКИЙ НАУЧНО-ИССЛЕДОВАТЕЛЬСКИЙ ИНСТИТУТ
ХИМИЧЕСКОЙ ТЕХНОЛОГИИ**

СИРОЖИДДИНОВ ИСМОИЛ ЛУКМОНОВИЧ

**РАЗРАБОТКА И ВНЕДРЕНИЕ ТЕХНОЛОГИИ ПОЛУЧЕНИЯ
ДЕПРЕССОРНО-ДИСПЕРГИРУЮЩИХ ПРИСАДОК ДЛЯ
ДИЗЕЛЬНОГО ТОПЛИВА**

02.00.14– Технология органических веществ и материалов на их основе

АВТОРЕФЕРАТ
диссертации доктора философии (phd) по техническим наукам

Ташкент – 2026

Тема диссертации на соискание ученой степени доктора философии (PhD) по техническим наукам; зарегистрирована в Высшей аттестационной комиссии при Академии наук Республики Узбекистан под номером B2025.3.PhD/T5840.

Диссертация выполнена в Ташкентском научно-исследовательском институте химической технологии.

Автореферат диссертации на трёх языках (узбекский, русский, английский (резюме)) размещён на веб-странице по адресу www.tktiti.uz и информационно-образовательном портале «ZiyoNet» по адресу www.ziynet.uz.

Научный руководитель:

Вафаев Ойбек Шукурлаевич

доктор технических наук (DSc), старший научный сотрудник

Официальные оппоненты:

Каримов Махсуд Убайдуллаевич

доктор технических наук, профессор

Нарзуллаев Акмаль Холлиорович

доктор философии по техническим наукам, доцент

Ведущая организация:

Термезский Государственный Университет

Защита диссертации состоится «16» июль 2026 г. в «09:00» часов на заседании Ученого совета DSc.30/2025.27.12.K/T.01.01 при Ташкентском научно-исследовательском институте химической технологии по адресу: 111116, Ташкентская область, Ташкентский р.-н, ул. Шурабазар, Тел: (+99895) 144-67-83, E-mail: ooo_tniixt@mail.ru, TKTITI@exat.uz.

Диссертация зарегистрирована в Информационно-ресурсном центре Ташкентского научно-исследовательского института химической технологии за № 2026/38, с которой можно ознакомиться в ИРЦ (111116, Ташкентская область, Ташкентский р.-н, п.о.Шурабазар, Тел: (+99895) 144-67-83, E-mail: ooo_tniixt@mail.ru, TKTITI@exat.uz).

Автореферат диссертации разослан «02» июль 2026 года.
(протокол рассылки № 2026/38 от «02» июль 2026 года).



А.Т. Джалилов

Председатель научного совета
по присуждению учёных степеней,
д.х.н., проф., академик

Ш.Д. Ширинов

Ученый секретарь научного совета
по присуждению учёных степеней,
PhD.т.н., с.н.с.

Х.С. Бекназаров

Председатель научного семинара
при научном совете по присуждению
учёных степеней, д.т.н., проф.

ВВЕДЕНИЕ (аннотация диссертации доктора философии (PhD))

Актуальность и необходимость темы диссертации. В настоящее время синтезируемые в мире диспергирующие добавки, снижающие температуру застывания дизельного топлива, имеют большое практическое значение для повышения температуры застывания топлива и производства высококачественного, экологически чистого дизельного топлива. Широкое использование диспергирующих добавок, снижающих температуру застывания, для повышения эффективности производства дизельного топлива увеличивает спрос на промышленную продукцию и определяет актуальность исследований по улучшению низкотемпературных характеристик дизельного топлива, развитию новых высокотехнологичных отраслей промышленности и устранению существующих проблем в промышленности путем внедрения диспергирующих добавок, снижающих температуру застывания.

В мире уделяется большое внимание исследованиям и разработке эффективных диспергирующих присадок для дизельного топлива. В этой связи особое внимание уделяется разработке ресурсосберегающих технологий производства комплекснодействующих полиэфирных продуктов на основе этиленпропиленового каучука, полиэтилентерефталата, пентаэритрита, глицерина и ненасыщенных жирных кислот.

В нашей республике большое внимание уделяется внедрению научно обоснованных систем управления промышленными объектами и мер по охране окружающей среды среди средств внедрения инновационных технологий, по которым определяются результаты. Стратегия развития Нового Узбекистана на 2022-2026 годы ставит важную задачу «определение приоритетного направления экономического развития и дальнейшее ускорение производства готовой продукции с высокой добавленной стоимостью на основе глубокой переработки местного сырья, а также создание качественно новых продуктов и технологий»¹. имеет создание высокоэффективных и экологически чистых технологий производства депрессантных диспергирующих присадок для дизельного топлива на основе органического синтеза, направленных на развитие ведущих отраслей народного хозяйства, включающая химическую промышленность.

Указ Президента Республики Узбекистан № ПФ-60 от 28 января 2022 года «О стратегии развития нового Узбекистана в 2022-2026 годах» и постановления № ПК-436 «О мерах по повышению эффективности реформ, направленных на переход Республики Узбекистан к «зеленой» экономике к 2030 году», № ПК-3479 от 17 января 2018 года «О мерах по устойчивому обеспечению экономических секторов страны востребованной продукцией и сырьем», № ПК-3479 от 3 апреля 2019 года «О мерах по дальнейшему проведению реформ и увеличению объема инвестиций» и № ПК-4256 «О мерах по дальнейшему реформированию химической промышленности и

¹Указ Президента Республики Узбекистан № ПФ-60 от 28 января 2022 года «О стратегии развития нового Узбекистана на 2022-2026 годы»

повышению ее инвестиционной привлекательности». Результаты данного диссертационного исследования в определенной степени послужат при выполнении задач, поставленных в постановлениях Министерства юстиции Республики Узбекистан, а также в других нормативно-правовых документах, относящихся к данной деятельности.

Соответствие исследований приоритетным направлениям развития науки и техники Республики.

Данное исследование выполнено в соответствии с приоритетными направлениями развития науки и технологий республики VII. "Химические технологии и нанотехнологии".

